

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK
XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI

Alimova Shamsiya Raximovna

Buxoro davlat universiteti, 2-bosqich tayanch doktoranti.

shamsiya.alimova.82@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11215545>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda o'zbek xalq pedagogikasining o'rni haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogik faoliyat, qo'shimcha ta'lim tashkilotlari, ijtimoiy pedagogik faoliyat modeli, mikro(kichik) markazlar, sog'lom turmish tarzi.

THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF
FUTURE TEACHERS

Abstract. This article discusses the role of Uzbek folk pedagogy in developing the spirituality of future teachers.

Key words: socio-pedagogical activity, additional educational organizations, model of social-pedagogical activity, micro (small) centers, healthy lifestyle.

РОЛЬ УЗБЕКСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль узбекской народной педагогики в развитии духовности будущих учителей.

Ключевые слова: социально-педагогическая деятельность, организации дополнительного образования, модель социально-педагогической деятельности, микро (малые) центры, здоровый образ жизни.

Respublikamizning bugungi ma'naviy-ma'rifiy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlarni ko'rsak bo'ladi. Asriy qadriyatlarimiz va milliy an'analarimiz tiklanmoqda va mustahkamlanmoqda. Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsa bo'ladi. Har bir jamiyatda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir.

Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlarini qiyofasi majmuidir. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir.

Xalq pedagogikasida insoniyat ma'naviyatini rivojlantiruvchi vosita hayot va bizning milliy urf-odatlarimizdir. Ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-ururchilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga birinchi galda Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xalqining milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng nozikta'b xalqlar qatoriga olib chiqib, ko'z-ko'z qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yuq. O'quvchilar hatto etnografik yunalishda bo'lsada, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadigan o'zbekona asarlarga chanqoq bo'lib yurgandek tuyuladi. Mustaqillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida istibdod yillarida ta'qiq ostida bo'lgan ba'zi xususiyatlarni tiklash masalasi hal qilinmoqda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tashqi va ichki hovliga bo'linishi — halqning milliy ruhini, iymonu e'tiqodini, toatu ibodatini aks ettirgan. 37 Oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir qilish omillari mavjud. Bularni hisobga olmasdan turib, qiz bolalar tarbiyasini oilada yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Buning uchun avvalo ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim. Oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan;

2. Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qat'iy bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalariga xaddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni xurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham xurmat qilishni o'rgatishlari zarur;

3. Ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la xis qilmaydilar. Boshqacha aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik etishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo ota-onalarning o'zlarini-o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir ob'ekti va sub'ektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday ob'ekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib olmaydilar;

4. Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishdan hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qilish o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;

5. Har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdir. Otaonaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim;

6. Ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'gitlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahllik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom axloqiy muhit muhim ahamiyatga ega;

7. Oilada bolalarni sevish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularni izzat-nafsiga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafратini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilgani maqsadga muvofiqdir;

8. Har bir oilada uning o'ziga xos bo'lgan an'analari mavjud bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan: oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh urug'lar xolidan xabar olish va hokazolar; 9. Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasida manbalaridan o'rganishimiz lozim.

Jumladan, tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish, ta'na qilish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash kabilar. Lekin insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma'lum. O'zbek xalqida bolalar bilan bog'liq juda ko'p yaxshi an'analar bor. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta'limtarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qa-rashlarni targ'ib qilib kelgan. Oilada yangi insonniig dunyoga kelishini barcha xalqlar qadimdan kishi hayotidagi eng quvonchli hodisa sifatida nishonlab kelganlar. Xalqimiz ana shu quvonchni ifoda etuvchi turli urf-odatlarini ijod etgan. O'zbeklarning qadimiy urf-odatlariga ko'ra yangi chaqaloqning dunyoga kelishi faqat uning ota-onasi uchungina emas, balki hamma qarindosh-urug'lari va mahalla-ko'y uchun ham sevinchli hodisa hisoblangan. Hozirga qadar saqlanib kelayotgan qadimiy odatlardan biri yangi chaqaloq sharafiga mevali daraxt o'tqazishdir. Bu bilan ular yangi chaqaloqning dunyoga kelishini an'anaviy marosimga aylantirish va tabiatga mehr-muhabbat uyg'otibgina qolmasdan, balki keyingi avlodlar hayotining farovonlashishini ham ko'zlashgan. Xalqimizda faqat o'zining

bolasinigina emas, umuman o'ziga yaqin hamma bolalarni sevish, ehtiyotlash, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, payt kelsa, sho'x bolalarni tartibga chaqirish, ona suti berib, parvarish qilish an'analari avloddanavlodga o'tib keladi. «Bir bolaga butun mahalla ota-ona» degan maqol shundan. Mahalladagi har bir bolaning yurish-turishi, tarbiyasi uchun hamma baravar mas'uliyat his qilgan. Ota-onasiz qolgan bolalarni boqishni butun mahalla o'z zimmasiga olgan. Emizikli bolalar uchun ko'kragida suti bor onalarni jalb etish g'oyat qadrlangan. Bu savob ish, oily himmatlik, bag'rioqlik deb hisoblangan.

Boquvchisi yo'qlar ham mahalla e'tiboridan chetda qolmagan. Qazosi etganda butun mahalla ko'mgan. Biz xalq og'zaki ijodi asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, xalqning nom qo'yish odatiga keng o'rin berilganini ko'ramiz. Shu xalqlari, xususan o'zbek xalqida shunday odat bor: bolalarga oiladagi kattalar, elu yurt o'rtasida mo'tabar bo'lgan kishilar, e'tiborli qariyalar nom qo'yadilar. Bu qadimdan qolgan rasmdir.

Xulosa qilib aytganda, har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat ma'naviyatdir. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir.

REFERENCES

1. Alimova, S. (2022). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ILMIY VA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 66-70.
2. Raximovna, A. S. (2024). Xalq Pedagogikasi BoLajak OQituvchilar MaNaviyatini Rivojlantirish Vositasi Sifatida. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(4), 65-67.
3. Rakhimovna, A. S. (2023). Pedagogical-Psychological Features of Developing the Spirituality of Future Teachers by Means of Folk Pedagogy. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 435-441.
4. Alimova, S. (2022). INTERFAOL TA'LIMNING ASOSIY TAMOIYIL, SHAKL VA OMILLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 19(19).
5. Alimova, S. (2022). O'QUVCHILARDA O'Z FAOLIYATLARINI BAHOLASH VA TASHXISLASH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 19(19).

6. Baxshilloevna, S. M. (2022). BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI NUTQI NAMUNA-O'RNAK VOSITASI SIFATIDA. *Scientific Impulse, 1(4)*, 1288-1292.
7. Baxshilloevna, S. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(2)*, 146-152.
8. Sharipova, M. B. (2021). Laylo Mirzo Qizi Muslimova XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress, (7)*.
9. Sharipova, M. B., & Muslimova, L. M. Q. (2021). XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress, 2(7)*, 1130-1134.
10. Sharipova, M. B. (2021). Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress, (7)*.
11. Baxshilloevna, S. M. (2023). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQ O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali, 1(1)*, 168-168.
12. Baxshilloevna, S. M. (2022). «ALPOMISH» DOSTONI-VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA. *Scientific Impulse, 1(4)*, 1426-1430.
13. Sharipova, M. B., & Ravshanova, G. F. Q. (2021). QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR. *Scientific progress, 2(7)*, 1139-1144.
14. Шарипова, М. Б., & Саъдуллаева, М. Б. К. (2020). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Проблемы педагогики, (6 (51))*, 58-60.
15. Sharipova, M. (2020). O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1)*.
16. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. *Scientific progress, 2(7)*, 1102-1108.
17. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress, 2(7)*, 1125-1129.

18. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
19. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, 2(7), 1135-1138.
20. Шарипова, М. Б., & Ньматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
21. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
22. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloeyvna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
23. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR. *Scientific progress*, 2(7), 1145-1148.
24. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
25. Шарипова, М. Б., & Хусайнова, З. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 106-108.
26. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
27. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic "Alpomish"). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
28. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
29. Sharipova, M. (2023). О 'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA'LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
30. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЛИМ YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

31. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
32. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O’YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO’LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
33. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
34. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAIK EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
35. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
36. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKON MAROSIMINING ARXAIK-VAIYU XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).

MODERN SCIENCE
& RESEARCH